

Iqtisodiy manfaatdorlik avtomobilsozlik rivojida bosh omil bo'lishi zarur



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 26 iyun kuni avtomobil sanoatida joriy yil uchun belgilangan ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarini ta'minlash, tarmoqning rivojlanish istiqbollari belgilash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Mamlakatimiz avtosanoati iqtisodiyotimizni yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shayotgan tarmoqlardan biridir. "General Motors", "MAN", "Isuzu" kabi jahondagi yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlikda yurtimizda yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kun avtomobil sanoatini modernizatsiya qilish va bosqichma-bosqich rivojlantirish, raqobatbardosh va eksportbop avtomobillar ishlab chiqarish, ularning modellarini muntazam yangilash vazifalarini qo'ymoqda.

Yig'ilishda tarmoqda mahalliyashtirish, aholiga avtomobillarni tez va arzon yetkazib berish, tashqi bozorga eksport qilish zamon talablariga umuman javob bermasligi tanqid qilindi.

Mamlakatimiz bir paytlar yiliga 100 mingdan ziyod avtomobil eksport qilgan bo'lsa, oxirgi 5 yilda uni ishlab chiqarish va eksport qilish hajmi kamaygan. Tarmoqning barcha darajadagi boshqaruvida korrupsiya, tovlamachilik, tanish-bilishchilik kabi illatlar tomir otib ketgani bunga sabab bo'lmoqda.

Keyingi 2,5 yilda avtomobil sotishda korrupsiya va tovlamachilik holatlari bo'yicha 99 ta jinoiy ish ochilgan. "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasida yuzaga kelgan qarzdorlik oqibatida o'tgan yili tizimdagi bir nechta korxonalar faoliyatini zarar bilan yakunlagan. Avtomobillar yillar davomida o'z tannarxidan past qiymatda eksportga chiqarilgan. O'z navbatida, tannarxni tushirish bo'yicha sezilarli ish qilinmagan.

Avtomobil ehtiyot qismlari tayyorlashni o'zlashtirish ham qoniqarsiz ahvolda. Butlovchi qismlar importi ham hanuz yuqoriligicha qolmoqda.

Davlatimiz rahbari mazkur kamchiliklarni bartaraf etish, avtomobilsozlikda mahsulot tannarxini kamaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish, importni qisqartirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Tarmoq korxonalarini aylanma mablag'lar bilan to'ldirish, avtomobillar ishlab chiqarish, ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish lozimligini ta'kidladi.

Avtomobil sanoatining eksport salohiyatini kengaytirishda yuzaga kelayotgan zarar hajmini qisqartirish muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz shu maqsadda 2020 yilgacha bosqichma-bosqich foyda bilan eksport qilish choralarini ko'zda tutuvchi kompleks dastur ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi.

Ichki bozorda avtomobil sotishda korrupsiya bartaraf etilmayotgani aholi noroziligiga olib kelmoqda. Avtosalonlarning joylashishi va avtomobillar taqsimoti hududlar aholisining talablariga javob bermaydi, – dedi davlatimiz rahbari. – Misol uchun, 3 million aholisi bo'lgan Qashqadaryo viloyatida atigi 2 ta avtosalon xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa, 2,8 millionlik aholisi bor Toshkent viloyatida 12 ta avtosalon mavjud. Natijada aholi qo'shni viloyatlardan avtomobil qidirib sarson bo'lmoqda.

Yuqoridagi kamchiliklardan kelib chiqib, yig'ilishda avtomobil ishlab chiqarishda iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish, tashqi bozorda raqobatga chidamli mahsulotlar tayyorlashni yo'lga qo'yish, ularni sotish tizimini takomillashtirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

Hukumat va "O'zavtosanoat" kompaniyasi rahbariyatiga mamlakatimiz avtomobilsozlik tarmog'i jahon bozorida munosib o'rin egallashi uchun uni izchil rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, iste'molchilar ehtiyojini inobatga olgan holda, yanada zamonaviy mashinalar ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqqa innovatsion texnologiyalarni jalb etish va investitsiyalar oqimini ko'paytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berildi.

O'ZA